Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320930

ta´minlashning ustuvor yo´nalishlari´´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

masalaga alohida to‘xtalib, kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar olib borildi.

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, Respublikamizda kundalik iste’mol tovarlarining asosiy qismini aholining iste'mollarga bo‘lgan talabi tashkil etadi. Iste’mol tovarlari iqtisodiy kategoriya sifatida qishloq xo‘jaligi, iste’mol sanoati tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olinishini va iste’molchilarga sotilishini tashkil etuvchi xo‘jaliklar o‘rtasidagi ayirboshlash munosabatlarining majmuasini aks ettiradi.

Iste’mol ko‘rsatkichlari to‘g‘risida umumiy xulosaga keladigan bo‘lsak buni joriy yildagi va o‘tgan yillardagi iste’mol ko‘rsatkichlari bilan fikrimizni dalilladik. Prezidentimiz rahbarligida iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojiga keng yo‘l ochilgani ham aholi bandligining oshishi va daromadlari o‘sishida muhim omil bo‘lmoqda.

Adabiyotlar:

1.A.O‘lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU, 2014.

2.Sh.Shodmonov , U . G‘afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2005.

3. www.gov.uz

4. www.lex.uz

5. www.stat.uz

MAHALLIY BUDJET IJROSI HISOBITINI TUZISH VA ULARNING AXBOROT IMKONIYATLARINI OSHIRISH MASALALARI

Suvonqulova Zarinabonu, Botirov Saidabror
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovatsiyalar”fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy byudjetlarning ijrosi bo‘yicha hisobot tuzish va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari tahlil qilingan. Mahalliy byudjetni samarali boshqarish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, oshkoralikni ta'minlash va raqamli vositalarni joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. Tahlilda O‘zbekistonning amaldagi qonunchilik asoslari va xalqaro tajribaga murojaat qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, tushum, yagona g‘azna hisobvarag‘i, bank hisobvaraqlari, daromad , xarajat, budjet tizimi, yuridik majburiyat, moliyaviy majburiyat.

Kirish

Mahalliy byudjetlar davlat moliyaviy tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda mahalliy byudjetlarning oshkoraligini oshirish, ularning ijrosini tahlil qilish va axborot vositalaridan foydalanishni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, 2024-yil uchun qabul qilingan davlat byudjeti loyihasida mahalliy daromad bazasini kengaytirish va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda mahalliy byudjetlarning ijrosi to‘g‘risida axborotning ochiqligi va jamoatchilikka taqdim etilishi talab qilinmoqda. Bu borada O‘zbekiston hukumati "E-Byudjet" platformasini rivojlantirish va hisobot tizimini avtomatlashtirish bo‘yicha ishlamoqda.

Tahlil va natijalar

Published: 23.12.2024


Cite this article: Suvonqulova Zarinabonu, Botirov Saidabror (2024). Mahalliy budjet ijrosi hisobitini tuzish va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320930

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan g‘azna ijrosi yo‘li bilan amalga oshiriladi. budjet ijrosini tashkil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yagona axborot tizimida budjet tizimi budjetlari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilar uchun shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi. Budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilar o‘z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag‘larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Budjet tizimi budjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish[110]

1-rasm



Budjet tizimi budjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri bo‘lib, bu davr mobaynida o‘tgan yil uchun budjet tizimi budjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi budjet tizimi budjetlarining qo‘shimcha vaqt davridagi ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi. Budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida hamda budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

budjet ijrosi jarayonida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarga turli darajadagi budjetlardan budjet mablag‘larini ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat budjetning ijro etilishini tashkil qiladi. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va davlat boshqaruvi boshqa organlarining davlat budjetni ijro etish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va joylardagi ijroiya organlari mablag‘larning tegishli budjetlaga to‘liq va o‘z vaqtida kelib

[110] O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 2013 yil 26 dekabr VII bo‘lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.

tushishi va ularning belgilangan maqsadlarda xarajat qilinishi ustidan nazoratini amalga oshiradi.

Respublika budjet, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjet va mahalliy budjetlarni bevosita ijro etish moliya organlari tizimi (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tegishli hokimyatlar moliya boshqaemalari va bo‘limlari) tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat budjet va tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonunchilikda belgilangan parametrlari doirasida ijro etilishi uchun mas’ul hisoblanadi. Davlat budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat budjet ijrosini ta’minlaydi, respublika budjetni ijro etadi, Qoraqalog‘iston Respublikasi budjet va mahalliy budjetlarning ijro etilishiga rahbarlik qiladi. Bu organ davlat budjetda nazarda tutilgan barcha daromadlarning kelib tushishini ta’minlash hamda budjetdan ajratilgan mablag‘larning qat’iy belgilangan maqsadlardan oqilona va tejamkorlik bilan ishlatilishi yuzasidan chora-tadbirlarni tashkil etadi va amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi respublika budjetning vazirliklar, idoralar, budjet tashkilotlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ijro etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarning budjet kassa ijrosi qoidalariga rioya etilishi, kapital qo‘yilmalar va budjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa tadbirlarning banklar tomonidan moliyalanishini nazorat qiladi. Yo‘naltirilgan sertifikatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobini yuritish tartibi hamda turli darajadagi budjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobini yuritish tartibini belgilaydi..

Davlat budjetning ijro etilishida soliq va bojxona xizmati organlari katta rol o‘ynaydi. Soliq organlari soliqlar, majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab yozilishi, ularning O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga to‘liq va o‘z vaqtida kelib tushishini nazorat qiladi. Bojxona organlari zimmasiga bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblab yozilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish vazifasi yuklatildi.

Xulosa : Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur.

Mamlakatimiz davlat sektori buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini yanada takomillashtirish maqsadida davlat sektori uchun moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Davlat sektori uchun moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini joriy qilishning afzalliklari sifatida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- moliyaviy axborotning sifati, o‘z navbatida davlat sektori faoliyati natijalarini aniqroq baholash uchun ko‘proq imkoniyatlar bilan ta’minlashga yordam beradi;
- budjet, moliyaviy hisob va statistik hisobotlarning integratsiyasini yuqori darajada namoyon bo‘ladi;
- hisob amallarida hamda moliyaviy hisobotlarda shaffoflik oshadi;
- axborotning to‘liqliligi va ishonchliligini yanada takomillashishi hisobiga davlat aktivlarini boshqarish yaxshilanadi;
- strategik rejalashtirish, davlat moliyasini boshqarish va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish sifati oshadi, budjet mablag‘larini taqsimlashda samaradorlikka erishiladi;

- moliyaviy

hisobotlarni boshqa davlatlarning moliyaviy hisobotlari bilan har tomonlama taqqoslash imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr.(o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 589-son Qonuni. 2019 yil. 9 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 657-son Qonuni. 2020 yil 25 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. // Xalq so‘z.
5. Kasimova G.A., Xaydarov A. G‘aznachilikning dasturiy komlekslari. Darslik. T:. 2021. «Nihol print OK. 376 b.
6. Xaydarova D., Achilboyeva S., Mahalliy byudjet daromadlari hisobi tashkil etishining nazariy jihatlari. Scienceproblame.uz 52-b https://scienceproblems.uz/
7. www.norma.uz
8. www.openbudget.uz

БУХОРО ВИЛОЯТИ ТОВАР ВА ХИЗМАТЛАР ТАШҚИ САВДО ДИНАМИКАСИНИ СТАТИСТИК БАҲОЛАШ

Эргашев Миржон Ёркин ўғли
Кадрлар малакасини ошириш ва статистик тадқиқотлар институти 2-курс таянч докторанти
mirjonergashev@mail.ru

Аннотация. Мақолада Бухоро вилояти ташқи савдо таркибини статистик баҳолаш амалга оширилган. Мақолада бахолашни амалга оширишда ташқи савдо таркибидаги ўзгаришларнинг тўлиқ ифодалайдиган статистик кўрсаткичлардан фойдаланилган. Таҳлил натижалари асосида таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: статистик кўрсаткичлар, статистик баҳолаш, экспорт, импорт, савдо баланси, товар ва хизматлар

Кириш. Ташқи савдони статистик тадқиқ қилиш ташқи иқтисодий фаолиятнинг статистик тармоғи бўлиб, мамлакат ва унинг ҳудудларида ташқи савдо муносабатларини жорий ҳолати ҳамда ривожланиш тенденцияларини тавсиф-лайди. Ташқи савдо ҳар қандай иқтисодий субъектга қимматли қийматга еришиш имконини беради. Чунки, қайсидир минтақада чиқинди сифатида қаралган буюм, бошқа минтақа учун қимматли қийматга эга бўлиши мумкин. Бундан хулоса қиланадики, ташқи савдо алоқаларини ривожи мамлакат ва унинг ҳудудларига қимматли қийматга эга ресурслани жалб қилади.

Ташқи савдо статистикасида экспорт, импорт, ташқи савдо айланмаси динамикасини ўрганиш учун ўрганилаётган ҳодисанинг вақт ўтиши билан ўзгаришини тавсифловчи ва унинг ривожланиш йўналишини очиб берувчи динамик кўрсаткичлардан фойдаланилади. Ушбу тартибдаги маълумотлар – вақтли қатор маълумотлари ҳисобланади. Кузатув даврига мос тартибда йиллик, ойлик, ҳафталик ҳамда чораклик каби вақт ўлчовлари мавжуд.

Адабиётлар шарҳи. Кўплаб олимларнинг илмий тадқиқотлари кўрсатадики, мамлакат ва унинг ҳудудлари ташқи савдо ривожи мамлакат аҳоли фаравонлигига